

O‘ZBEK XALQINING ETNOGENEZI VA ETNIK TARIXI

Yunusova Zarifaxon Abduvaxobovna

Andijon davlat pedagogika instituti Tarix kafedrası

o‘qituvchisi zarifa7655@gmail.com

Akmaljonov Akbarjon Akmaljon o‘g‘li

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi

3-bosqich talabasi

Akmaljonovakbarjon2001@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi atroflicha tahlil qilinadi. Etnogenez jarayonining boshlanishi miloddan avvalgi bronza davriga borib taqaladi. O‘zbek xalqining shakllanishi davomida bir qancha etnik guruhlar, jumladan, so‘g‘diylar, xorazmiylar, saklar, turkiy qabilalar va boshqa xalqlar o‘zaro aralashib, yagona etnik birlikka aylangan. Maqolada ilmiy manbalar va tarixiy tadqiqotlarga asoslanib, o‘zbek xalqining shakllanish jarayoni, asosiy bosqichlari va etnik tarkibi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Etnogenez, etnik tarix, O‘zbek xalqi, turkiy tillar, so‘g‘diylar, xorazmiylar, saklar, aralashuv, tarixiy manbalar.

ЭТНОГЕНЕЗ И ЭТНИЧЕСКАЯ ИСТОРИЯ НАРОДА УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: В статье дается подробный анализ этногенеза и этнической истории узбекского народа. Начало процесса этногенеза относится к бронзовому веку до нашей эры. В ходе формирования узбекского народа несколько этнических групп, в том числе согдийцы, хорезмийцы, саки, тюркские племена и другие народы, смешались между собой и стали единым этническим единством. В статье на основе научных источников и исторических исследований освещается процесс формирования, основные этапы и этнический состав узбекского народа.

Ключевые слова: Этногенез, этническая история, узбекский народ, тюркские языки, согдийцы, хорезмийцы, саки, смешение, исторические источники.

ETHNOGENESIS AND ETHNIC HISTORY OF THE UZBEKISTAN PEOPLE

Abstract: *This article provides a detailed analysis of the ethnogenesis and ethnic history of the Uzbek people. The beginning of the ethnogenesis process dates back to the Bronze Age BC. During the formation of the Uzbek people, several ethnic groups, including the Sogdians, Khorezmians, Saks, Turkic tribes and other peoples, mixed with each other and became a single ethnic unity. The article, based on scientific sources and historical research, covers the process of formation, main stages and ethnic composition of the Uzbek people.*

Keywords: *Ethnogenesis, ethnic history, Uzbek people, Turkic languages, Sogdians, Khorezmians, Saks, mixture, historical sources.*

KIRISH

O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy tarixiy jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu mavzu bo‘yicha turli ilmiy qarashlar mavjud bo‘lib, ular xalqimizning shakllanish jarayonini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Etnogenez jarayoni bir qancha bosqichlardan iborat bo‘lib, har bir bosqichda turli etnik guruhlarining o‘zaro aralashuvi va madaniy almashinuvi ro‘y bergan. Har bir xalqning tarixi uning etnogenezi va etnik tarixi bilan uzviy bog‘liqdir. etnogenez va etnik tarix esa tarix fanining bosh masalasidir. O‘zbek xalqining etnogenez va etnik tarixi O‘zbekiston xalqlari tarixining tarkibiy qismini tashkil etadi. U tarixiy yozma manbalar, etnografiya, arxeologiya, antropologiya, lingvistika, toponimika, epigrafika, numizmatika kabi fanlar bilan o‘zaro aloqada va uzviy bog‘liq bo‘lib, ularsiz o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini mukammal ilmiy o‘rganib bo‘lmaydi. Ayniqsa ushbu muammoning etnogenez qismini o‘rganishda, ulardan olingan ma‘lumotlar masala yechimiga ko‘p oydinliklar kiritadi. O‘zbek xalqining etnogenezi miloddan avvalgi bronza davriga borib taqaladi. Bu davrda so‘g‘diylar, xorazmiylar va saklar kabi eroniy tilli xalqlar O‘zbekiston hududida yashagan. Ularning madaniyati va tili o‘zbek xalqining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. O‘zbek xalqining etnogenezi uzoq tarixiy jarayon bo‘lib, uning bosqichlari qadimgi davrlarga — miloddan avvalgi II ming yillikka borib taqaladi. Bu davrda O‘zbekiston hududida turli madaniyat va etnik guruhlar mavjud bo‘lgan bo‘lib, ular orasida saka-massagetlar, so‘g‘diylar, baqtriyaliklar, xorazmiylar, parkaniylar va boshqa eroniy tilli qabilalar muhim o‘rin tutgan. Arxeologik topilmalar, toponimik ma‘lumotlar va qadimgi yozma manbalar ushbu xalq qatlamlarining mavjudligini tasdiqlaydi. Olim Ahmadali Asqarov o‘z tadqiqotlarida O‘zbekiston hududidagi ilk etnik shakllanish jarayonlari haqida

shunday deydi: “Miloddan avvalgi birinchi ming yillikda yashagan eroniy tilli xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati va o‘zaro aloqalari O‘zbekiston hududida istiqomat qilgan xalqlarning keyingi tarixiy taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan.” (Asqarov A., 2007).

Etnogenez jarayonining dastlabki bosqichida xorazmiylar va so‘g‘diylar kabi xalqlar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular yuqori darajadagi irrigatsiya madaniyati, yozuv tizimi va shaharsozlik an‘analarini rivojlantirgan. So‘g‘diylar Markaziy Osiyodagi savdo-sotiq, ayniqsa Buyuk Ipak yo‘li orqali olib borilgan iqtisodiy aloqalarda vositachilik qilgan xalq sifatida tarixda muhim iz qoldirgan. Bundan tashqari, saklar (massagetlar) kabi ko‘chmanchi qabilalar ham bu hududda faoliyat yuritgan. Ular erkin harakat qiluvchi qabilalar bo‘lib, o‘z urf-odatlarini va turmush tarzi orqali mahalliy dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi xalqlar bilan aralashgan. Bu esa o‘z navbatida, madaniy va etnik uyg‘unlikning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Tarixchi olim K. Shoniyozov bu haqda quyidagicha fikr bildiradi: “O‘zbek xalqining shakllanishi jarayoni uzoq tarixiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi va bu jarayonda eroniy tilli qadimgi aholi qatlamlarining roli nihoyatda muhim bo‘lgan.” (Shoniyozov K., 2001).

Etnogenezning boshlanish bosqichida madaniyatlar va tillarning o‘zaro ta’siri kuchli bo‘lgan. Bu holat arxeologik yodgorliklar (Amudaryo va Zarafshon vohalaridagi manzilgohlar, qabristonlar, ibodatxonalari) orqali tasdiqlanadi. Masalan, Qang‘ davlati davriga oid topilmalar xalqimizning ilk shakllanish bosqichidagi madaniy qatlamlar haqida qimmatli ma’lumot beradi. Shunday qilib, O‘zbekiston hududida yashagan qadimgi xalqlarning madaniyati, tili va genetik omillari o‘zaro uyg‘unlashib, O‘zbek xalqining etnik asoslarini tashkil etgan. Bu tarixiy aralashuv va uyg‘unlik keyingi bosqichlarda turkiy unsurlar bilan birlashib, yagona xalq shakllanishiga olib kelgan. Milodiy davrda turkiy qabilalar, jumladan, qarluqlar, o‘zbek xalqining shakllanishida muhim o‘rin tutgan. K. Shoniyozovning ta’kidlashicha, qarluqlar XI asrning birinchi yarmiga kelib shakllanib, o‘zbek xalqining etnogenizida jiddiy rol o‘ynagan. Milodiy I ming yillikning ikkinchi yarmi va II ming yillik boshlarida O‘zbekiston hududiga turkiy qabilalarning kirib kelishi va bu hududda doimiy yashab qolishi O‘zbek xalqining etnik shakllanish jarayonida tub burilish yasadi. Bu davrdan boshlab, mahalliy eroniy tilli aholi qatlamlariga turkiy qabilalar singib bora boshladi. Ushbu aralashuv nafaqat genetik va demografik, balki til va madaniyat sohalarida ham chuqur o‘zgarishlarga olib keldi. Tarixiy manbalarda, xususan, Tang sulolasi yilliklarida va arab geograflarining asarlarida Markaziy Osiyo hududida yashagan ko‘plab turkiy qabilalar haqida aniq ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, IX–X asrlarda qarluqlar Farg‘ona vodiysi va Zarafshon vohasida doimiy yashay boshlagan va bu hududda kuchli siyosiy ta’sirga ega bo‘lgan. Turkiy qabilalar va eroniy tilli xalqlarning o‘zaro aralashuvi

natijasida o‘zbek xalqining etnik tarkibi shakllana boshlagan. Bu jarayonda til, madaniyat va urf-odatlar birlashib, yagona etnik birlikni tashkil etgan. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni uzoq tarixiy davrni o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu jarayonda turli etnik guruhlar o‘zaro aralashib, yagona etnik birlik – o‘zbek xalqining vujudga kelishiga asos solgan. Bu jarayon asosan antik davrdan to XIV–XV asrlargacha bo‘lgan vaqtni qamrab oladi. Miloddan avvalgi va milodiy birinchi ming yillikda O‘zbekiston hududida asosan eroniy tilli xalqlar – so‘g‘diylar, baqtriyaliklar, xorazmiylar yashagan. Ular o‘zining dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo va shaharsozlik an‘analari bilan ajralib turgan. Ushbu xalqlarning madaniyati va til elementi O‘zbekiston hududidagi ilk etnik asosni tashkil qilgan. Keyinchalik, milodiy VI asrdan boshlab, hududga turli turkiy qabilalar kirib kela boshladi. Ular orasida qarluqlar, yag‘mo, chigil, o‘g‘uzlar, qipchoqlar kabi ko‘chmanchi va yarim-ko‘chmanchi qabilalar mavjud edi. Ular o‘zlariga xos harbiy tuzum, siyosiy tashkilot va ko‘chmanchi hayot tarziga ega bo‘lgan. Turkiy qabilalarning mahalliy eroniy tilli aholiga singib borishi va ular bilan aralashuvi natijasida etnik aralashuv yuzaga kelgan. Ushbu jarayon ikki asosiy yo‘nalishda kechgan: birinchidan, turkiy tilli aholi son jihatdan ustunlikka erishib, lingvistik o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan; ikkinchidan, madaniy va ijtimoiy jihatdan ham ikki tomonlama integratsiya sodir bo‘lgan.

VIII–X asrlarda bu jarayon kuchaygan bo‘lib, turkiy va eroniy tillar yonma-yon mavjud bo‘lgan. Bu davrda ikki tilli aholi guruhleri shakllanib, ko‘p hollarda bir oilada turkiy va eroniy tillarda so‘zlashuvchi insonlar yashagan. XIV asrga kelib, turkiy tillar keng tarqalgan va asosiy aloqa vositasi sifatida qaralgan. Mo‘g‘ullar istilosi davrida (XIII asr) Markaziy Osiyoga ko‘plab yangi etnik guruhlar kelib joylashdi. Ularning aksariyati turkiylashgan qabilalar bo‘lib, ular mavjud etnik aralashuv jarayoniga singib ketdi. Bu jarayonning natijasida yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, siyosiy tuzilmalar va til birliklari vujudga keldi. Etnik aralashuv natijasida paydo bo‘lgan sintezlashgan guruhlar XIV–XV asrlarda “o‘zbek” nomi bilan atalgan. Ushbu etnik birlik o‘zida qadimgi mahalliy va turkiy unsurlarni uyg‘unlashtirgan. Bu etnik shakllanish jarayoni, avvalo, umumiy til, urf-odatlar, iqtisodiy hayot tarzining birlashuvi orqali mustahkamlangan. Natijada, o‘zbek xalqi tarixiy jarayonlarning mahsuli sifatida shakllandi. Bu shakllanish tabiiy evolyutsion aralashuv, siyosiy birlashuv, iqtisodiy integratsiya va madaniy uyg‘unlik asosida kechgan. Etnik birlikni mustahkamlovchi asosiy omil esa umumiy tarixiy xotira, urf-odatlar, til va hududiy birlik bo‘lgan. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni uzoq tarixiy davrni o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu jarayonda turli etnik guruhlar o‘zaro aralashib, yagona etnik birlik – o‘zbek xalqining vujudga kelishiga asos solgan. Bu jarayon asosan antik davrdan to XIV–XV asrlargacha bo‘lgan vaqtni qamrab oladi.

Miloddan avvalgi va milodiy birinchi ming yillikda O‘zbekiston hududida asosan eroniy tilli xalqlar – so‘g‘diylar, baqtriyaliklar, xorazmiylar yashagan. Ular o‘zining dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo va shaharsozlik an‘analari bilan ajralib turgan. Ushbu xalqlarning madaniyati va til elementi O‘zbekiston hududidagi ilk etnik asosni tashkil qilgan. Keyinchalik, milodiy VI asrdan boshlab, hududga turli turkiy qabilalar kirib kela boshladi. Ular orasida qarluqlar, yag‘mo, chigil, o‘g‘uzlar, qipchoqlar kabi ko‘chmanchi va yarim-ko‘chmanchi qabilalar mavjud edi. Ular o‘zlariga xos harbiy tuzum, siyosiy tashkilot va ko‘chmanchi hayot tarziga ega bo‘lgan. Turkiy qabilalarning mahalliy eroniy tilli aholiga singib borishi va ular bilan aralashuvi natijasida etnik aralashuv yuzaga kelgan. Ushbu jarayon ikki asosiy yo‘nalishda kechgan: birinchidan, turkiy tilli aholi son jihatdan ustunlikka erishib, lingvistik o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan; ikkinchidan, madaniy va ijtimoiy jihatdan ham ikki tomonlama integratsiya sodir bo‘lgan. VIII–X asrlarda bu jarayon kuchaygan bo‘lib, turkiy va eroniy tillar yonma-yon mavjud bo‘lgan. Bu davrda ikki tilli aholi guruhlari shakllanib, ko‘p hollarda bir oilada turkiy va eroniy tillarda so‘zlashuvchi insonlar yashagan. XIV asrga kelib, turkiy tillar keng tarqalgan va asosiy aloqa vositasi sifatida qaralgan. Mo‘g‘ullar istilosi davrida (XIII asr) Markaziy Osiyoga ko‘plab yangi etnik guruhlar kelib joylashdi. Ularning aksariyati turkiylashgan qabilalar bo‘lib, ular mavjud etnik aralashuv jarayoniga singib ketdi. Bu jarayonning natijasida yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, siyosiy tuzilmalar va til birliklari vujudga keldi. Etnik aralashuv natijasida paydo bo‘lgan sintezlashgan guruhlar XIV–XV asrlarda “o‘zbek” nomi bilan atalgan. Ushbu etnik birlik o‘zida qadimgi mahalliy va turkiy unsurlarni uyg‘unlashtirgan. Bu etnik shakllanish jarayoni, avvalo, umumiy til, urf-odatlar, iqtisodiy hayot tarzining birlashuvi orqali mustahkamlangan. Natijada, o‘zbek xalqi tarixiy jarayonlarning mahsuli sifatida shakllandi. Bu shakllanish tabiiy evolyutsion aralashuv, siyosiy birlashuv, iqtisodiy integratsiya va madaniy uyg‘unlik asosida kechgan. Etnik birlikni mustahkamlovchi asosiy omil esa umumiy tarixiy xotira, urf-odatlar, til va hududiy birlik bo‘lgan.

O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi bo‘yicha bir qancha ilmiy manbalar mavjud. Ahmadali Asqarovning "O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi" asari bu sohada muhim ilmiy manba hisoblanadi. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o‘rganishda tarixiy, arxeologik, lingvistik va antropologik manbalarga asoslanilgan ilmiy yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Mazkur mavzu bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ko‘p asrlik tarixiy jarayonlarni izchil tahlil qilishga xizmat qiladi. Tarixiy manbalar orasida qadimgi Xorazm, So‘g‘d, Baqtriya va Farg‘ona kabi hududlarga oid yozma yodgorliklar etnik jarayonlarni yoritishda asosiy manba sifatida foydalaniladi. Antik mualliflar (Gerodot, Strabon), arab geograflari (Istahriy, Ibn Havqal) va Xitoy yilliklari (Suyshu, Tan shu)da Markaziy Osiyoda yashagan turli xalqlar, ularning joylashuvi, urf-odatlari va tillari haqida ma’lumotlar

mavjud. Bu yozma manbalar hududda yashagan eroniy va turkiy tilli qabilalar haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Arxeologik manbalar, jumladan, Qang‘, Ko‘kcha, Dalvarzintepa, Varaxsha, Paikend, Toprakkala kabi yodgorliklardan olingan topilmalar orqali qadimgi xalqlarning moddiy madaniyati, yashash tarzi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichlari aniqlanadi. Bu arxeologik topilmalar asosida qadimgi aholining turmush tarzidagi o‘zgarishlar, tashqi aloqalar va etnik aloqadorliklar tahlil qilinadi. Lingvistik tadqiqotlar esa turli davrlarda mavjud bo‘lgan tillarning o‘zaro ta’siri va o‘zgarishini aniqlashda yordam beradi. O‘zbekiston hududida so‘g‘diy, xorazmiy, forsiy, tohar tillari kabi eroniy guruhlariga mansub tillar bilan bir qatorda, qarluq, qipchoq, o‘g‘uz tillari kabi turkiy tillarning tarixiy rivojlanishi o‘rganilgan. Ushbu tahlillar orqali O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va uning qadimiy komponentlari aniqlanadi. Antropologik tadqiqotlar orqali esa aholining jismoniy-biologik xususiyatlari, etnik aralashuv darajalari va populyatsiyaviy dinamikasi o‘rganiladi. Skelet materiallari, kraniologik va genetika asosida olib borilgan tadqiqotlar turli davrlarda yashagan guruhlar o‘rtasidagi biologik bog‘liqlik va migratsion harakatlarni aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, zamonaviy genetik tadqiqotlar orqali o‘zbek xalqining genetik tarkibida eroniy, turkiy va boshqa mintaqaviy komponentlarning mavjudligi aniqlangan. Bu uslubda olingan ma’lumotlar tarixiy va arxeologik dalillarni to‘ldiradi hamda etnogenez jarayonining murakkabligini yanada chuqurroq ochib beradi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi uzoq davom etgan ko‘p bosqichli, murakkab tarixiy jarayon bo‘lib, bu jarayonda qadimgi eroniy tilli xalqlar, turkiy qabilalar va boshqa mintaqaviy etnik guruhlarining o‘zaro ta’siri va aralashuvi muhim rol o‘ynagan. Miloddan avvalgi davrlardan boshlab, O‘zbekiston hududida so‘g‘diylar, xorazmiylar, baqtriyaliklar kabi qadimgi xalqlar istiqomat qilgan bo‘lib, ular mahalliy madaniyat, til va ijtimoiy tuzumga asos solgan. Keyinchalik, milodiy I ming yillikning o‘rtalaridan boshlab, hududga kirib kelgan turkiy qabilalar – qarluqlar, o‘g‘uzlar, qipchoqlar va boshqa qabilalar mahalliy aholi bilan aralashib, umumiy til, madaniyat va urf-odatlarining shakllanishiga xizmat qilgan. Til jihatidan turkiy komponent ustunlikka ega bo‘lib, o‘zbek tilining asosiy zamini bo‘lib shakllangan. Madaniy uyg‘unlik esa turli qabila va elatlarning yagona etnik birlik sifatida birlashuviga sabab bo‘lgan. XIII–XV asrlarda bu jarayon o‘zining yakuniy bosqichiga yetgan bo‘lib, tarixiy voqealar – mo‘g‘ullar istilosi, Temuriylar davrida siyosiy barqarorlikning tiklanishi va Shayboniylar davrida “o‘zbek” etnonimining mustahkamlanishi orqali o‘zbek xalqi sifatida etnik birlik to‘liq shakllangan. Shu tariqa, o‘zbek xalqining shakllanishi tabiiy etnik aralashuv, siyosiy-iqtisodiy barqarorlik, madaniy va lingvistik uyg‘unlik asosida amalga oshgan bo‘lib, bu

jarayon tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar, lingvistik va antropologik tadqiqotlar orqali isbotlangan. Mazkur tarixiy-etnik shakllanish jarayonining o‘rganilishi nafaqat o‘zbek xalqining kelib chiqishini tushunishga, balki umumiy Markaziy Osiyo tarixiy jarayonlarini tahlil qilishga ham muhim hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asqarov, A. (2007). O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. Toshkent: O‘zbekiston.
2. Shoniyozov, K. (2001). O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. Toshkent: O‘zbekiston.
3. Xursanova, F. (2024). O‘zbek xalqining etnogenezi, etnik tarixi va etnografiyasining dolzarb masalalari. Scienceweb.
4. G‘offorov, B. G. (2023). O‘zbek xalqining etnogenezi. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 6(6).
5. Asqarov, A. (2007). O‘zbek xalqining etnik tarixi. Toshkent: O‘zbekiston.